



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish iqtibollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

rivojlanishni birlashtirgan izchil va muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish qobiliyati bilan belgilanadi. Iqtisodiy boshqaruvga kompleks yondashuv global beqarorlik xavfini minimallashtirishga va uzoq muddatli, muvozanatli rivojlanishni ta’minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Macroeconomics — makroiqtisodiyot bo‘yicha zamonaviy darslik.
2. O‘zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirligining “Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish to‘g‘risida”gi hisobotlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari.

UDK:338.48

**TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA
TURISTIK XIZMAT TURLARI DIVERSIFIKASIYALASHUVIGA YONDASHUVLAR**

**ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЫНКА ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ И ПОДХОДЫ К
ДИВЕРСИФИКАЦИИ ВИДОВ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ**

**FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF THE TOURIST SERVICES MARKET AND
APPROACHES TO THE DIVERSIFICATION OF TYPES OF TOURIST SERVICES**

Asraqulov Abduraxmon Sultonovich

Farg‘ona davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Maqolada turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari hamda turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga nazariy yondashuvlar turli rakurslar bo‘yicha o‘rganib chiqilib, xususiyatlardan kelib chiqqan holda qo‘llaniladigan diversifikatsiya turlari va ulardan foydalanish ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turistik xizmatlar, xizmatlar bozori, turistik xizmatlar bozori, diversifikatsiya, turizm industriyasi.

В статье рассматриваются особенности развития рынка туристических услуг и теоретические подходы к диверсификации видов туристических услуг на различных конкурсах, рассматриваются виды диверсификации и их использование, которые используются исходя из характеристик.

Ключевые слова: туристские услуги, рынок услуг, рынок туристских услуг, диверсификация, индустрия туризма.

The article examines the features of the development of the tourist services market and theoretical approaches to the diversification of types of tourist services in various competitions, considers the types of diversification and their use, which are used based on the characteristics.

Keywords: tourist services, services market, tourist services market, diversification, tourism industry.

Jahon miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda yuz berayotgan global o‘zgarishlar ta’sirida bugungi kunda mavjud tizimlardagi bog‘liqliklar hamda tendensiyalar yangicha asosga o‘zgarimoqda. Turli mamlakatlarni o‘ziga birlashtirgan mintaqalar darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlari o‘zgarib, moddiy ishlab chiqarish tuzilmalari ustuvorlikni xizmatlar yo‘nalishiga bo‘shatib bermoqda. Ushbu o‘zgarishlar iste’molchilarning mulk va

tadbirkorlik, shu bilan birga, mehnatdan olinayotgan daromadlar hajmining ortib borishi natijasida daromadlarning eng zaruriy ehtiyojlarni qoplaydigan qismidan qolgan qismining ortib borishi bilan, iste'molchilarning ikkilamchi va undan keyingi zarur bo'lgan ne'matlarga bo'lgan talabi hajmining ortib borishiga olib kelmoqda. Bu esa, birinchi navbatda, iste'molchilarning turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining talab darajasiga o'tishiga olib keladi. O'z navbatida, bu o'zgarishlar iqtisodiy tizimlar tarkibidagi tarmoq va sohalaridagi jarayonlarning yangi asosga ko'chishiga olib kelmoqda.

Xizmatlar sohasining eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishi turizm industriyasi hisoblanib, iste'molchilar daromadlarining ortgan qismini atrof-muhit, tarixiy yodgorliklar, yashayotgan joylaridan ma'lum bir uzoqlikdagi mavjud an'analar va qadriyatlarni o'rganish, sayohat vositasida yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, salomatlikni tiklash, dam olish va boshqa turdagi xizmatlar iste'moliga yo'naltirmoqdalar.

Soha rivojlanishining bugungi kungacha bo'lgan o'zgarishlari asosida ta'kidlash mumkinki, turizm sohasini rivojlantirish aholi bandligini oshirish, tadbirkorlikni rag'batlantirish, daromadni oshirish va buning natijasida hududlar byudjetining daromad qismini oshirish kabi keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish imkonini beradi. Turizm sohasi odamlar va ularning guruhlari o'zlarining ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, madaniy, ma'rifiy va boshqa manfaatlarini ro'yobga chiqaradigan hamda tegishli ehtiyojlarni qondiradigan ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

“Turizm” atamasining noaniqligi bu tushunchani turizm tizimining uyushgan elementlari majmuini nazarda tutuvchi tizim sifatida o'rganishga imkon beradi. Bu elementlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin [1]:

- turizm subyektlari (turistlar va ularning birlashmalari, turizm subyektlari faoliyat turlari, sohada turistlar harakatini ijtimoiy tartibga solish bo'yicha davlat organlari faoliyati);
- turizm obyektlari va vositalari (turistik resurslar, turizm industriyasi va infratuzilmasi obyektlari).

Turizm tizimiga har biri o'zining ichki murakkab tuzilishi va maqsadlariga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy kichik tizimlar kiradi va amalda ular bir kichik tizimdan ikkinchisiga o'tishi mumkin. Jahonda turizmning asosiy quyi tizimi ijtimoiy hisoblanadi, chunki u asosiy huquqlarni amalga oshirishni boshlaydi (dam olish huquqi, harakat erkinligi huquqi, kurort davolash huquqi, madaniy qadriyatlarga kirish huquqi va boshqalar). Ijtimoiy tizimga davlatning turizmni boshqarish organlari, turizm sohasida ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi davlat va kommunal korxonalar va muassasalar, nodavlat ilmiy-ma'rifiy tashkilotlar, sog'liqni saqlash kurort tashkilotlari, bolalar uchun dam olish va sog'liqni saqlash muassasalari va boshqalar kiradi.

Turistik xizmatlar ham boshqa xizmatlar singari moddiy ko'rinishga ega bo'lmasa-da, aholining hayot farovonligi, yashash darajasi va sifatiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Chunki mazkur xizmatlar ham boshqa bir qancha xizmatlar singari odamlar ruhiyatining o'zgarishiga yashashdan qoniqish hosil qilishiga olib keladi. Turistik xizmatlarning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ushbu xususiyatlar iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalaridan farqlanadi (1-jadval).

Sohani barqaror rivojlantirishning yana bir muhim shartlaridan biri bir qancha tarmoqlarni ham baravar rivojlantirishga erishishdan iborat. Chunki sohaning barqaror faoliyati unga tegishli bo'lgan ayrim tarmoqlar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Boshqacha aytganda, milliy iqtisodiyotlarning alohida soha va tarmoqlari alohida holda rivojlana olmaydi, ya'ni tarmoq va sohalar o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda taraqqiy etadi. Chunki bir tarmoq yoki soha o'zining asosiy faoliyati jarayonida boshqa tarmoq yoki soha uchun iste'molchi bo'lishi, etkazib beruvchi bo'lishi, har ikki holat ham yuz bermaganda, ushbu soha iste'molchilari boshqa tarmoq yoki sohada yaratilgan ne'matlarni yondosh mahsulot sifatida iste'mol qilishi mumkin.

1-jadval

Turistik xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning mazmuni [2]

#	Xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari	Xizmatlar o'ziga xos xususiyatlarning mohiyati
1.	Turistik xizmatlarning bir vaqtning o'zida ham	Turistik xizmatlarning ijtimoiy ahamiyati bevosita aholining ish bilan ta'minlashi, daromadlarning oshirishi, hayot sifati va darajasining oshirilishi bilan belgilanadi. Iqtisodiy

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 3-son 2026 yil*

	ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi	ahamiyati bevosita uning hudud va mamlakat iqtisodiyotiga (YaHM va YaIM) qo‘shayotgan hissasi, xizmatlar sohasidagi o‘rni (YaQQ dagi ulushi), turistik mahsulotlar ishlab chiqarishi va boshqalar bilan belgilanadi.
2.	Turistik xizmatlarning oldi-sotdi jarayonida moddiy shaklda namoyon bo‘lmasligi	Turistik xizmatlar ham boshqa xizmatlar singari oldi-sotdi jarayonida moddiy shaklda namoyon bo‘lmaydi, balki bir vaqtning o‘zida iste‘mol qilinadi. Xizmat ko‘rsatuvchining xizmati uning professionalligiga mos ravishda iste‘molchining ham mazkur xizmatdan qanchalik manfaatdor bo‘lishligini nazarda tutadi va natijada ularning umumiy saviyasiga bog‘liq bo‘ladi.
3.	Turistik xizmatlarni saqlash imkoniyatining yo‘qligi	Turistik xizmatlarni ham boshqa xizmatlar singari saqlash imkoniyati yo‘q, chunki u bevosita ko‘rsatilayotgan jarayonda iste‘mol qilinadi, uning sifati ham shu jarayonning o‘zida iste‘molchi tomonidan baholanadi.
4.	Turizm xizmatlarining xizmat joyida ko‘rsatilishi va boshqa joyga olib ketilishining imkoni yo‘qligi	Turizm xizmatlari nomoddiy bo‘lishi, uni saqlash va tashish imkoniyatining yo‘qligi hamda mazkur xizmat iste‘mol qilinadigan payt va joyida ko‘rsatilishi uni boshqa joyga olib ketilishining imkoni yo‘qligi bilan xarakterlanadi.
5.	Turistik xizmatlarni ko‘rsatishda iste‘molchi, xizmat ko‘rsatuvchi va turistik mahsulot bir vaqtning o‘zida hozir bo‘lishligi	Turistik xizmatlarning yana bir muhim xususiyati uni ko‘rsatish jarayonida iste‘molchi, xizmat ko‘rsatuvchi va turistik mahsulot (xizmat) bir vaqtning o‘zida hozir bo‘lishi zarurligi bilan xarakterlanadi.
6.	Turizm xizmatlar sifati va raqobatbardoshligi	Turistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi korxonalar va firmalar juda yuqori tavakkalchilik (risk) sharoitida ishlaydi. Agar sifatli xizmatni ta‘minlay olmasa, raqobatda imkoniyatni boy berib qo‘yishlari ehtimoli juda baland bo‘ladi.

Turizm sohasini milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog‘i sifatida tasniflash masalasini asoslashda uning ishlab chiqarish xususiyatlarini shakllantirishning asosiy omillarini, ularning ma‘lum tasniflash mezonlariga muvofiqligini, unga ko‘ra tashkilotlar milliy iqtisodiyot tegishli tarmog‘ining bir qismi ekanligini, ularning ishlab chiqarish xususiyatlariga bog‘liqligini hisobga olish kerak. Bundan tashqari, erishilgan natijalarni, shuningdek, ularning rivojlanish istiqbollari hisobga olish tavsiya etiladi. Alohida sohani tashkil etuvchi tashkilotlar to‘plami quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- iqtisodiy munosabatlarning o‘xshash turi bilan shug‘ullanuvchi mustaqil korxonalar va tashkilotlar sonining ko‘pligi;
- milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalari bilan barqaror iqtisodiy munosabatlarning shakllanganligi;
- iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtiruvchi aniq boshqarish tizimining mavjudligi.


Turistik xizmatlar bozori – turistik mahsulotni realizatsiya qilish sohasi va shu bilan birga ushbu bozor subyektlari o‘rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar shakllanuvchi makondir. Turistik bozorning subyektlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin [3]:

- turistik agentliklar va turoperatorlar, ya‘ni turistik xizmatlarni yaratuvchilar;
- turistlar, ya‘ni turistik xizmatlarning bevosita iste‘molchilari;
- davlat siyosatiga muvofiq turistik bozor faoliyatini tartibga soluvchi davlat organlari.

Boshqacha qilib aytganda, turistik bozor tushunchasi turistik mahsulot bo‘lgan bitimlar tuzish joyi sifatida qaralishi mumkin. Turistik mahsulot deganda turlar, individual turizm xizmatlari va turistlar uchun turli xil tovarlar tushuniladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, turistik xizmatlarni ishlab

chiqaruvchilar faoliyatining asosiy vazifasi mijozning dam olish, sayohat qilish va hokazolarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira oladigan yuqori sifatli va arzon turistik mahsulotni taqdim etishdir.

Turistik xizmatlar bozorida muayyan turistik mahsulotni sotib olish jarayoni sotib olish va sotish harakatidan ancha oldin boshlanadi. Iste‘molchining qaror qabul qilishi bir qator omillarga bog‘liq va bu qaror turli muammolarni hal qiladi, ammo ma‘lum bosqichlarni o‘z ichiga olgan barqaror tuzilishga ega (1-rasm).



1-rasm. Turistik mahsulotni iste‘mol qilishning asosiy bosqichlari [4]

Pandemiyadan keyingi sharoitda turizm xizmatlari bozorida ko‘p sonli turistik tashkilotlarning qayta shakllanayotgan talab uchun raqobat kurashi ham ular tomonidan o‘z faoliyatlarini talabni rag‘batlantirgan holda diversifikasiyalashtirishlariga majbur etdi. Bundan tashqari normal bozor iqtisodiyoti sharoitida global o‘zgarishlar ta‘sirida turistik xizmatlarga bo‘lgan raqobatning ortib borishi raqobat risklaridan zarar ko‘rmaslik uchun turistik xizmatlar bozori ishtirokchilarini o‘z faoliyatlarini diversifikasiyalashni talab etadi[5].

“Diversifikatsiya” atamasi (lot. “diversificatio”) lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “o‘zgarish, xar xillik” ma‘nosini anglatadi. Iqtisodiy jihatdan “diversifikatsiya” so‘zi “... ixtisoslashgan (sanoat, transport, qurilish) korxonalarining boshqa sohalarga kirib borishi, taqdim etilayotgan mahsulotlar va xizmatlar turlarini o‘zgartirish va kengaytirish, sotish bozorlarini qayta yo‘naltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy foyda olish va bankrotlikning oldini olish maqsadida yangi ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish” ma‘nosini anglatadi [6].

Quyida turistik xizmatlar bozorida “diversifikatsiya” konsepsiyasining talqiniga turli tadqiqotchilarning yondashuvlarini ko‘rib chiqaylik. E.G.Novitskiy “diversifikatsiya” atamasini aniqlashda “asosiy faoliyatga qaramlik” va “yangi sohalar” kabi iboralardan foydalanadi, bu diversifikatsiya turlaridan birining xususiyatini ko‘rsatadi [7].

M.V.Gusev diversifikatsiya tushunchasiga turli investitsiyalarni diversifikatsiya qilish orqali turistik tashkilotning mumkin bo‘lgan faoliyat yo‘nalishini tarmoqlantirishning strategik turi sifatida ham yondashadi. Biroq, diversifikatsiyaning o‘zi ma‘lum risk va xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi fikr va yondashuvlar asosida “diversifikatsiya” tushunchasining asosini tashkil etuvchi muhim xususiyatlarni quyidagilar orqali ko‘rsatish maqsadga muvofiq:

- diversifikatsiya – bu raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga sotishning yangi darajasiga chiqish imkonini beruvchi strategiya;

- diversifikatsiya – ishlab chiqarishning yangi turlarini rivojlantirish, iqtisodiy risklarni kamaytirish maqsadida uni iste'molchilarning kengaytirilgan toifasiga yo'naltirish;

- diversifikatsiya – qisqa muddatda boshqa turdagi tovar (xizmat)larni ishlab chiqarish uchun zarur resurslarga ega bo'lgan kompaniya tomonidan bir vaqtning o'zida bir nechta bozorlarga xizmat ko'rsatish;

- diversifikatsiya – bu risklarni minimallashtirish va tarqatishning bevosita usuli.


Bugungi kungacha amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida diversifikatsiya turlarini tasniflashda uchta belgi (xususiyat)ga tayaniladi – pul mablag'larini taqsimlash, faoliyat turlari hamda diversifikatsiya shakli (2-rasm).

1. Pul mablag'larining taqsimlanishiga ko'ra diversifikatsiya quyidagi turlarga ajratiladi:

- investitsiya diversifikatsiyasi – pul mablag'larini minimal risk natijasiga nisbatan taqsimlash;
- mahsulot (xizmat)lar assortimentini kengaytirish.

2. Faoliyat turlariga ko'ra diversifikatsiya turlari:

- ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ni diversifikatsiyalash;
- risklar (boshqariladigan va boshqarilmaydigan)ni diversifikatsiyalash;
- etkazib beruvchilarni diversifikatsiyalash.



2-rasm. Diversifikatsiyaning tasniflanishi

3. Shakliga ko'ra diversifikatsiya turlari:

- gorizontal diversifikatsiya – assortimentda mavjud bo'lgan mahsulotlardan farq qiladigan va iste'molchilar uchun qiziqarli bo'lgan mahsulot (xizmat)larni yaratish;

- vertikal diversifikatsiya – barcha ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonlarini yagona boshqaruv doirasida tarmoqlantirish;

- konsentrik (bog'liq bo'lgan) diversifikatsiya – tashkilotning mavjud tovar (xizmat)lari yoki texnologiyalari bilan bog'liq mahsulot (xizmat)larni yaratishni o'z ichiga oladi;

- konglomerativ (bog‘liq bo‘lmagan) diversifikatsiya – tashkilotda mavjud bo‘lgan mahsulot (xizmat) va texnologiyalarga bog‘liq bo‘lmagan yangi tarmoq (soha)dagi faoliyatni rivojlantirish.

Diversifikatsiya turistik firmalarga iste‘molchilar uchun mo‘ljallangan noyob mahsulotni yaratish orqali qiyin iqtisodiy vaziyatda raqobatbardoshlikni saqlashga imkon beradi. Diversifikatsiyaning barcha sabablari nafaqat hozirgi paytda yoki yaqin kelajakda, balki uzoq muddatli istiqbolda ham turistik tashkilotlar samaradorligini oshirish istagi bilan bog‘liq.

Tashqi muhit noaniqligining mavjud shartlari turistik tashkilot faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, uning turistik xizmatlar bozorida samaradorligi va samaradorligini pasaytirmoqda. Shu sababli, turistik xizmatlar bozorida o‘z faoliyatini samarali davom ettirish uchun turistik xizmatlar bozorida turistik mahsulotni diversifikatsiyalash lozim.

Yuqoridagi fikrlar va yondashuvlardan kelib chiqib, bugungi kunda turistik xizmatlar bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlar, shu bilan birga mintaqa va hududlarda turistik faoliyatni diversifikatsiyalash sohaning turli ko‘zda tutilmagan vaziyatlardagi yo‘qotishlarini minimallashtirish, shu bilan birga, tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Пенкина, Н.В. Туристско-рекреационный комплекс: теоретико-методологические подходы к анализу: Учебно-методическое пособие / Н.В. Пенкина. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт. гос. ун-та, 2017. – С.7-11.
2. Мирзаев А.Т. Ўзбекистонда туристик-рекреация фаолиятини бошқаришнинг илмий-методологик асослари. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. –Т.: ТДИУ, 2021. –15-б.
3. Мусаева Б.М. Специфика функционирования рынка туристических услуг / Деловой вестник предпринимателя, №7 (1), 2022. –С. 159-163.
4. Видищева, Е. В. Направления регулирования туристских потоков в целях обеспечения устойчивости развития туристской территории / Е. В. Видищева, А. С. Копырин, Е. К. Воробей // Вестник Академии знаний. – 2021. – № 3(44). – С. 65-69.
5. Стрелков М. А. Управление диверсификацией предпринимательской деятельности российских корпораций. автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2008. – С. 9.
6. Современный словарь иностранных слов. –СПб.: “Дуэт”, 1994. –С. 198. –752 с. –ISBN 5-7116-0022-2.
7. Новицкий Е. Г. Проблемы стратегического управления диверсифицированными корпорациями. – Москва: Буквица, 2001. – 256 с.